

Yoshlarning "Respublika yosh kimyogarlar forumi" ni o'tkazish hamda "O'zkimyosanoat" stipendiyasi"ni ta'sis etish taklifi ma'qullandi

// 23 January 2021 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/young-forum>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan Boshqaruv raisining tizimdagi korxonalar va tashkilotlarning yoshlar yetakchilari bilan uchrashuvi tashkil etildi. Videokonferentsaloqa orqali o'tkazilgan uchrashuvda "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar va tashkilotlar yoshlar yetakchilari, korxonalar rahbar-xodimlari va faol yoshlar ishtirok etdi.

Uchrashuvda Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokama qilindi va yoshlar yetakchilarining takliflari tinglandi. Mamlakatimiz kimyo sanoati va tizimdagi korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish borasida yoshlar yetakchilari tomonidan bildirilgan takliflar qo'llab-quvvatlandi. Hususan, yoshlar tomonidan D.I.Mendelev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filialida Toshkent shahri va respublika oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus ta'lim muassasalarining kimyo sohasi bo'yicha talaba va mutaxassislari, kimyo va biologiyaga ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarini jalb qilgan holda "Respublika yosh kimyogarlar forumi"ni tashkil etish va tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan, talabalikka qabul qilingan salohiyatli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va tizim uchun kadrlar zahirasini yaratish maqsadida "O'zkimyosanoat"

stipendiyasi"ni ta'sis etish bo'yicha berilgan takliflar qo'llab-quvvatlandi hamda "Respublika yosh kimyogarlarning forumi"ni tashkil etish va "O'zkimyosanoat" stipendiyasi"ni ta'sis etish bo'yicha mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

"Respublika yosh kimyogarlarning forumi" har yil may oyining so'nggi yakshanba kuni keng nishonlanadigan "Kimyogarlarning kuni" kasb bayrami arafasida tashkil etiladi.